XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING
QARORI

2022 - yil 14 - aprel VI-60-72-7-102-K/22 Paxtachi tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasining oshirib bajarilgan qismidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri U.Arnaqulovning taklifini eshitib, xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmishinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri U.Arnaqulovning tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasining oshirib bajarilgan qismidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida taklifi ma’qullansin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobi mablag‘laridan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratilgan mablag‘lar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (V.Hakimov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (U.Arnaqulov) va tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (J.Eshonqulov) bilan birgalikda budjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalarini amalga oshirish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish,

investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Kenjayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (V.Hakimov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **M.Xamdamov**

Xalq deputatlari Paxtachi tuman Kengashining
2022 yil 14 apreldagi
VI-60-72-7-102-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag‘laridan amalga oshiriladigan tadbirlarga ajratilgan mablag‘lar

MIQDORI

mln.so‘m

№	Moliyalashtirish manbai	Ajratiladigan tashkilotlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘lar miqdori
1	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman Xalq ta’limi bo‘limiga	Nurobod tumanida bo‘lib o‘tadigan harbiy sport musobaqalarda qatnashish uchun transport xarajatlariga	1,0
2	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman Xalq ta’limi bo‘limiga	Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan “Yosh qutqaruvchilar” sport musobaqasi qatnashchilariga transport xarajatlariga	1,0
3	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman bolalar va o‘smirlar sport maktabi bo‘limi	Tumanda o‘tkazilayotgan DXX ning mini-futbol va futbol bo‘yicha g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash uchun	15,0
4	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman Xalq ta’limi bo‘limiga	Samarqand shahrida o‘quvchilar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan fan olimpiadalarining viloyat bosqichida qatnashishi uchun	4,0
5	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman Xalq ta’limi bo‘limiga	Tumandagi Matematika va fizika faniga ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘quvchilarini Samarqand shahriga ekskursiya xarajatlari uchun	5,0

6	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman Madaniyat bo‘limi	Tumanda umumxalq “Navro‘z” bayrami tadbirini ko‘tarinki ruhda o‘tkazish maqsadida Markaziy sport o‘yingohini bezash ishlari uchun	7,8
7	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman bolalar-o‘smirlar sport maktabi bo‘limi	Bayram tadbirida tashkil etilgan kurash musobaqalari g‘oliblarini taqdirlash uchun	3,5
8	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi harbiy xizmatidan qaytgan askarlarni taqdirlash uchun	2,0
9	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman bolalar-o‘smirlar sport maktabi bo‘limi	Paxtachi futbol jamoasini Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan musobaqalarga olib borish uchun	4,5
10	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman Xalq ta’limi bo‘limiga	13-umumta’lim maktabi jamoasini Toshkent shahriga ekskursiya qilishi uchun	2,5
11	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman hokimligiga	Tuman hokimligiga tegishli davlat raqami 30 097 DAV xizmat avtotransport vositasini ta’mirlash uchun	2,8
12	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman hokimligiga	Banner va stendlar yasatish uchun	20,0
13	Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak davomida daromadlar prognoz rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan	Tuman hokimligiga	Tumandagi tashkilotlarning xodimlarini rag‘batlantirish uchun	224,1
Jami				**293,2**